



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI



**2023-YIL YANVAR-SENTABR OYLARI  
BO'YICHA QISHLOQ XO'JALIGINING ASOSIY  
IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI**




# YALPI ICHKI MAHSULOT TARKIBIDA QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGINING O‘RNI


2023-yilning yanvar-sentabr oylarida mamlakatimiz **yalpi ichki mahsuloti 750,9 trln so‘mni**, 2022-yilning mos davriga nisbatan o‘shish **105,8 foizni** tashkil etdi. Yalpi ichki mahsulot hajmi **65,0 mlrd AQSh dollari** ekvivalentiga teng bo‘ldi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi **168,2 trln so‘mni** yoki **14,6 mlrd dollarni** tashkil etdi.

Yalpi ichki mahsulotdagi qo‘shilgan qiymati ulushi esa **23,7 foiz** darajada bo‘ldi.



## Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining yalpi qo‘shilgan qiymati, o‘shish sur‘ati, YAIMdagi ulushi



# QISHLOQ O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMLARI DINAMIKASI


2023-yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **292,7 trln so‘mni** tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **104,1 foizga** o‘shirildi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning AQSh dollaridagi ekvivalenti **25,3 mlrd dollarni** tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **44,1 trln so‘mlik (3,8 mlrd doll)** ko‘p mahsulotlar ishlab chiqarildi.


Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi aholi jon boshiga **8,1 mln so‘mni** tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan (**7,0 mln so‘m**) **15,3 foizga** oshdi.

## Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va aholi jon boshiga o‘shishi



# QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ HO‘JALIGIDA MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISH HAJMI


Qishloq xo‘jaligida yanvar-sentabr oylarida **xizmat ko‘rsatish va ovchilikda 2,5 trln so‘m**, o‘rmon xo‘jaligida **5,7 trln so‘m** va baliq xo‘jaligida **2,0 trln so‘m**, dehqonchilik mahsulotlari **137,4 trln so‘m**, chorvachilik mahsulotlari **145,1 trln so‘m** ishlab chiqarilgan. Tarmoqlar bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining yuqori ulushi chorvachilikka to‘g‘ri keladi - **49,6 foiz**. Dehqonchilikda - **46,9 foiz**, o‘rmon xo‘jaligida - **1,9 foiz**, qishloq xo‘jaligida xizmat ko‘rsatish va ovchilikda - **0,9 foiz**, baliq xo‘jaligida **0,7 foizni** tashkil etdi.



# HUDUDLAR BO'YICHA QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI MAHSULOT (XIZMAT)LARNING HAJMI

2023-yil **yanvar-sentabr** oylarida hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larning eng yuqori hajmi **Samarqand** (*36,4 trln so'm*), **Andijon** (*29,2 trln so'm*) va **Toshkent** (*28,1 trln so'm*) viloyatlarida qayd etildi. Eng kam hajmi **Qoraqalpog'iston Respublikasi** (*9,2 trln so'm*), **Sirdaryo** (*10,2 trln so'm*), **Navoiy** (*13,7 trln so'm*) viloyatlariga to'g'ri keldi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari hajmi, trln. so'm




■ 2022-yil yanvar-sentyabr, trln so'm

■ 2023-yil yanvar-sentyabr, trln so'm

# HUDUDLAR BO'YICHA QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI MAHSULOT (XIZMAT)LARNING ULUSHI DINAMIKASI

2023-yil **yanvar-sentabr** oylarida hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ulushining o'sish sur'ati **Surxondaryo** (**104,7 %**), **Navoiy** (**103,6 %**) va **Sirdaryo** (**103,5 %**) viloyatlarida qayd etildi. **Qoraqalpog'iston Respublikasi** (**-6,6 foiz**), **Farg'ona** (**-4,2 foiz**), **Toshkent** (**-2,8 foiz**) viloyatlarida yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushida pasayish kuzatildi.

Hududlarning yalpi ulushi va o'sish sur'atlari, %




# QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI MAHSULOT (XIZMAT)LARI ISHLAB CHIQARISHNING 2021-2023 YILLAR YANVAR-SENTABR OYLARI HAJMLARI

Hududlar bo‘yicha yuqori o‘shish ko‘rsatkichlari **Sirdaryoda**—**106,8 foiz**, **Surxondaryoda**—**106,5 foiz**, **Xorazmda**—**106,3 foiz**, **Jizzaxda**—**105,2 foiz**, **Namanganda**—**105,0 foizni** tashkil etdi.

**Sirdaryo** viloyatida yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlashga paxta (**145,3 %**), don (**104,2 %**) mahsulotlarini o‘shishi asos bo‘ldi.

**Surxondaryoda** paxta (**177,4 %**), baliq (**107,0 %**) tuxum (**105,4 %**), **Xorazmda** paxta (**149,3 %**) don (**101,1 %**), **Jizzaxda** paxta (**115,3 %**), tuxum (**105,9 %**), **Namanganda** paxta (**127,3 %**), don (**104,2 %**), tuxum (**107,4 %**), baliq (**127,4 %**) ishlab chiqarish hajmining o‘shishi hisobiga ta‘minlangan.

Qishloq o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsuloti hajmi, mlrd. so‘m



# 2023-yil yanvar-sentabr oylarida dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari dinamikasi

2023-yilning 9 oyida **7,0 mln. tonna** (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish **103,3 %**) don, **8,1 mln. tonna** (**101,5 %**) sabzavot mahsulotlari hamda **2,7 mln. tonna** (**101,1 %**) kartoshka yetishtirilgan. Hududlar bo'yicha don yetishtirish hajmi **Farg'ona** viloyatida **780,1 ming tonna** **Qashqadaryo** viloyatida **775,6 ming tonna**, **Surxondaryo** viloyatida **694,2 ming tonna**, sabzavot yetishtirish hajmi **Andijon** viloyatida **1 295,5 ming tonna**, **Samarqand** viloyatida **1 240,4 ming tonna**, **Surxondaryo** viloyatida **884,6 ming tonna**, kartoshka yetishtirish hajmi **Samarqand** viloyatida **549,4 ming tonna**, **Toshkent** viloyatida **303,3 ming tonna**, **Surxondaryo** viloyatida **301,6 ming tonnani** tashkil etdi.

## DON

6 972 ming tn **103,3%**



## SABZAVOT

8 136 ming tn **101,5%**




## KARTOSHKA

2 679 ming tn **101,1%**



Yanvar-sentabr, ming tonna





# 2023-yil yanvar-sentabr oylarida dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari dinamikasi

2023-yilning 9 oyida **2,3 mln tonna** (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish **103,1 %**) meva, **1,6 mln tonna** (**103,4 %**) poliz mahsulotlari hamda **1,3 mln tonna** (**93,2 %**) uzum yetishtirilgan. Hududlar bo'yicha meva yetishtirish hajmi **Andijon** viloyatida **475,8 ming tonna**, **Farg'ona** viloyatida **314,5 ming tonna**, **Samarqand** viloyatida **297,9 ming tonna**, poliz yetishtirish hajmi **Surxondaryo** viloyatida **219,2 ming tonna**, **Jizzax** viloyatida **198,4 ming tonna**, **Sirdaryo** viloyatida **192,9 ming tonna**, uzum yetishtirish hajmi **Samarqand** viloyatida **494,0 ming tonna**, **Buxoro** viloyatida **175,2 ming tonna**, **Farg'ona** viloyatida **114,6 ming tonnani** tashkil etdi.

## MEVA

2 280 ming tn **103,1%**



## POLIZ

1 607 ming tn **103,4%**




## UZUM

1 270 ming tn **93,2%**



Yanvar-sentabr, ming tonna



# 2023 yil yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliq hajmlari dinamikasi

2023-yilning 9 oyida **2,1 mln tonna** go'sht yetishtirilgan. Bu ko'rsatkich 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda **3,5 %**ga oshgan. Hududlar bo'yicha go'sht yetishtirish hajmi **Qashqadaryo** viloyatida **234,2 ming tonna**, **Samarqand** viloyatida **231,6 ming tonna**, **Toshkent** viloyatida **223,3 ming tonna**, **Buxoro** viloyatida **208,8 ming tonna**, **Jizzax** viloyatida **165 ming tonnani** tashkil etdi.

## GO'SHT

**2 043**  
ming tn **103,5%**



## SUT

**8 579**  
ming tn **103,5%**



## TUXUM

**6 056**  
mln dona **102%**




## BALIQ





**91,2**  
ming tn **110,5%**



Yanavar-sentabr, ming tonna; mln. dona




# 2023-yil yanvar-sentabr oylarida chorva mollari va parrandalar bosh soni

	2022-yanvar-sentabr	2023-yanvar-sentabr	Ўсиш, %
 Yirik shoxli qoramollar mln bosh	13,6	13,9	2%
 Sigirlar mln bosh	4,8	4,9	1,6%
 Qo'y va echkilar mln bosh	23,3	23,9	2,3%
 Parrandalar mln bosh	91,2	97,2	6,5%

**2023-yilning 1-oktabr holatiga** yirik shoxli qoramollar bosh soni **13 851,2 ming boshga** yetdi, (2022-yilning mos davriga nisbatan **2,0 %** ga ko'p), shundan sigirlar **4 942,6 ming bosh** (**1,6 %** ga ko'p), qo'y va echkilar **23 850,7 ming bosh** (**2,3 %** ga ko'p), otlar **271,8 ming bosh** (**2,9 %** ga ko'p), parrandalar **97 166,8 ming boshga** (**6,5 %** ga ko'p) yetdi. Eng ko'p yirik shoxli qoramollar soni **Qashqadaryoda** (**1732,8 ming bosh**), **Samarqandda** (**1689,8 ming bosh**), **Buxoroda** (**1341,6 ming bosh**) qayd etilgan.

## Chorva xayvonlari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, %



■ Fermer xo'jaliklari

■ Dehqon xo'jaliklari

■ Qishloq xo'jaligi korxonalari


# 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yaratilgan yangi ish o'rinlari



Joriy yil yanvar-sentabr oylarida jami **2,6 million**dan ortiq (*rejaga nisbatan 113,8%*) ish o'rinlari yaratilib, aholining doimiy va mavsumiy bandligi ta'minlandi. Jumladan, klasterlarda **91,9 ming**, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalarida **299,5 ming**, dehqon xo'jaligi uchun yer ajratishda **850,1 ming**, takroriy ekinga yer ajratish hisobiga **330,4 ming**, tomorqada **240,7 ming**, pillachilikda **829,3 ming** hamda suv va o'rmon xo'jaliklarida **11,8 ming** nafar fuqarolar band qilindi.

**2023-yil yanvar-sentabr oylarida** hududlar bo'yicha yaratilgan ish o'rinlarining eng yuqori hajmi **Farg'ona** (*354,3 ming ta*), **Toshkent** (*278,0 ming ta*), **Andijon** (*267,2 ming ta*), **Namangan** (*266,2 ming ta*), **Qashqadaryo** (*263,4 ming ta*), **Samarqand** (*255,3 ming ta*) viloyatlarida qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha agrar sohada yaratilgan yangi ish o'rinlari soni, ming ta




# Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari import va eksport hajmlari

## 2019-2023 yillarning yanvar-sentabr oylarida amalga oshirilgan import va eksport ko'rsatkichlari




Bug'doy (ming tonna)



■ Import ■ Eksport




Un (ming tonna)



■ Import ■ Eksport




Guruch (ming tonna)



■ Import ■ Eksport



O'simlik yog'i (ming tonna)




■ Import ■ Eksport

# Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari import va eksport hajmlari


## 2019-2023 yillarning yanvar-sentyabr oylarida amalga oshirilgan import va eksport ko'rsatkichlari



**Kartoshka (ming tonna)**



**Piyoz (ming tonna)**



**Go'sht import hajmlari (ming tonna)**

